



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Hamrakulova Zebo¹, Nematullayeva Munisa²

^{1,2} Samarqand davlat universiteti, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim"
fakulteti talabasi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish, bundan tashqari esa nutqiy madaniyatni oshirishning bir necha xil usullari, o'qishni o'rgatish, chiroyli yozish, savodli o'qish, to'g'ri talaffuz, to'g'ri fikrlash haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'z: nutq, nutqiy madaniyat, nutqiy usullari, og'zaki nutq, yozma nutq.

Bugungi kunda innovatsion rivojlanish yo'lidan jadal borayotgan mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi, ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli fuqarolarni yetishtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, bizlar katta e'tiborni yoshlarning kelajagiga qaratmog'imiz lozim. Eng e'tiborlisi shundaki, boshlang'ich maktablarda avvalo bolalarning nutq madaniyatini o'stirish va ularni bartaraf etish, qolaversa ularning ravon gapirishida nutq muhim asosiy vazifalardan biridir.

Nutq – bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq harakatdagi til bo'lib, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi va so'z va gaplardan tashkil topadi. Nutq madaniyati, madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalq tillarida qadimdan mavjud hodisadir. Bu tushuncha ma'lum lingvistik me'yorlar, etikaviy va estetikaviy talablar bilan aloqador bo'lgan tushuncha hisoblanadi.[2]

Nutq deganda soʻzlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida, nutq – bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri boʻlib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar oʻrtasida oʻzaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan oʻziga xos vazifasidir. Inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nutq vositasida idrok etadi. Oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqlarini meʼyorlashda, ularning mutanosibligini taʼminlashda, milliy tilning tabiati va oʻziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, yaʼni qiroat bilan oʻqishning amaliy ahamiyatini oʻstirish, adabiy til meʼyori va mezonlariga rioya qilish, oʻqish, oʻqish metodlarini takomillashhtirish yoʻllarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida nutq rivojining tarbiyasi individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini oʻrganish va oʻquvchilar nutqining ravonligini rivojlantirish. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarda nutqning oʻsishini mustaqil tahlil qilish, oʻzaro har tomonlama tavsifnomalar, oʻqituvchining kuzatishlari asosida amalga oshadi. Boshlangʻich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashgʻulotlarning yetakchi oʻrni nutq oʻstirish boʻlib, u savod oʻrgatish, chiroyli yozish koʻnikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini oʻz ichiga oladi. Bu darslarda koʻproq amaliy maqsadlarni koʻzlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, oʻquvchilarning til sezgiriligini tarbiyalash lozim. Ularning ogʻzaki nutqini muntazam oʻstirib borish bogʻanishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi.[3].

Asosan boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini hamda ular gapirayotgan paytda nutq madaniyatiga ham eʼtibor berish boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Oʻqituvchilar oʻquvchilarda nutq madaniyatini oshiritirishning turli xil usullarini koʻrib chiqishi kerak, sababi ular dars mashgʻulotlarida, turli xil tadbirlarda ishtirok etganlarida soʻzlash madaniyati hamda auditoriyani oʻziga jalb eta olish, shuningdek, ularning nutqini boshqa kishi bir zumda ilgʻay olishi kabilar muhim ahamiyatga egadir.

Shu bois, oʻquvchilarning maktabga borish davridanoq ularda uchraydigan nutqida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etishimiz lozim. Bu nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda asosan boshlangʻich sinf oʻqish kitobidagi matnlar hamda qiziqarli ertaklar muhim oʻrin tutadi. Quyida nutqiy madaniyatni oshirishning bir necha xil usullari haqida fikr bildirib oʻtamiz:

- Oʻqishni oʻrgatish.
- Chiroyli yozish
- Savodli oʻqish
- Toʻgʻri talaffuz
- Toʻgʻri fikrlash

Masalan: nutqiy madaniyatni oshirishda bu kabi yuqorida keltirilgan usullar juda ham foydali. Bunga misol qilib aytadigan boʻlsak, birinchi navbatda tilni nutqqa olib kirishda ularga oʻqishni oʻrgatish. Oʻqishni oʻrgatish degani bu- oʻsha tilni nutqqa tayyor qilishdan oldin ularga maʼnoli usulda oʻqish hamda oʻrgatish tushuniladi.

Chiroyli yozish deganimizda esa, nutq madaniyati odobiga rioya qilib soʻzlashimizni oq qogʻozga husnixat qoidalariga mos tarzda chiroyli koʻchirish tushuniladi. Ajdodlarimizdan qolgan bir aforizm ham bor “chiroyli yozish ham bir sanʼat” degan.



Ushbu keltirilgan misollardan savodli o'qish bu eng asosiy bo'g'ini sifatida qaraladi. Agar bizlar bunday gaplarni o'qishni bilmasak, na o'qiy olamiz va na yoza olamiz shuning uchun ham savodli o'qish bizlarga nutqimizni ravon hamda chiroyli so'zlashga majbur etadi.

Keyingi usulga keladigan bo'lsak, to'g'ri talaffuz qilish bilamizki, har bir odamda baribir qaysidir tomondan kamchilik bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib ko'rsatish mumkinki, oddiygina G'allaorolni ko'pchilik G'allaolol

(traktor-tlaktol, Zulqarnayn-Zulqalnay, trolleybus va hokazo) deb talaffuz qilish hodisalarni ko'rganmiz. Shuning uchun ham to'g'ri talaffuz etishda bizlar o'sha so'zni bir necha bor takrorlash orqali harakat qilishimiz kerak.

Shunday qilib, so'nggi nutq faoliyatiga keladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan barcha misollar so'nggi usulda o'z ifodasini topadi. Bizlar qanchalik ko'p o'qisak, to'g'ri yozsak, hamda to'g'ri talaffuz qilsak so'nggi usul ham o'z- o'zidan kelaveradi. Bunday nutq faoliyatlarini har bir kishi o'zlashtirsa, hamma ham noto'g'ri fikr bildirmaydi. Ko'p kitob o'qigan odamlarning dunyoqarashi, ichki dunyosi hamda yashaydigan dunyosi haqiqatdan ham chin bo'ladi. Ko'chilik shunday deydi " hayotga o'z ko'zing bilan boq" deb aytishadi yani buni ma'nosi shuki, hayotda to'g'ri fikrlashni o'rgan degandek.

Shuning uchun ham ushbu nutqiy faoliyat turlari bizning hayotimizda juda ham muhim hisoblanadi. Bu kabi usullar o'quvchilarning nutqini o'stirishda hamda ularning gapirayotgan gaplarini to'g'ri va ravon aytishda muhim va asosiy rolni egallaydi. Boshlang'ich sinflarda avvalo bu kabi usullar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga tushuntiriladi, keyinchalik esa yillar davomida bolalarning o'qish savodi, to'g'ri talaffuzi hamda beriladigan savollarga to'g'ri yondosha olishi muhimdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, nutq madaniyatini oshirishda eng muhim narsalar bular, o'qish kitobi so'zlashuv uslublari hamda chiroyli talaffuz bu kabilar nutqni o'stirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ayto lamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari endigina maktabgacha ta'lim muassasalaridan kelib, so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olmasliklari mumkin, bunga sabab ular shu vaqtgacha ota-onalariga erkalik qilib ham so'zlarni xato talaffuz qilishgan bo'lishadi. Ularning har bir talaffuz qilayotgan harflarini, so'ng bo'g'inlar bilan birgalikda o'rgatsak, har bir o'quvchimizning nutqi to'g'ri va talaffuzi chiroyli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaniyozov. R. Nutqiy mahorat. Toshkent 2005. – 15-16 b.
2. Jo'rayev.T., Halimov.S. Nutq madaniyati. Samarqand.,2021.-107 b.
3. Boshlang'ich sinflar uchun metodik qo'llanmalar.
4. www.uz.m.wikipedia.org
5. www.cyberleninka.ru
6. www.fayllar.org